

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJODKORLIK KO'NIKMALARINI VA KREATIVLIK QOBILIYATLARINI OSHIRISH

Boboyeva Muyassar Norboyevna

Buxoro davlat universiteti, Matematik analiz kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinif o'quvchilarining ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirish masalalari ko'rib chiqilgan. O'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini oshirish uchun dars o'tishda qo'llaniladigan usul-uslublar ko'rsatib o'tilgan. Darsni to'g'ri tashkil qilish, usul va uslublarni to'g'ri tanlab, dars samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Kreativlik, usul-uslub, ta'lim, o'quvchi, qobiliyat, diqqat, muammoli savol, fikr, texnik fikrlash, texnik ijodkorlik, ijodkor, dizayn.

IMPROVING IMAGINATION SKILLS AND CREATIVITY SKILLS OF ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS

Boboyeva Muyassar Norboyevna

Bukhara State University, Senior teacher of the Department of Mathematical Analysis

Abstract: This article covers the issues of the formation of creativity skills of Primary School students. The techniques used to enhance students creativity skills are outlined in the classroom. The correct Organization of the lesson is aimed at improving the effectiveness of the lesson by correctly choosing methods and techniques.

Keywords: Creativity, method-style, education, reader, ability, attention, problem question, thought, technical thinking, technical creativity, creator, design.

ПОВЫШЕНИЕ ТВОРЧЕСКИХ НАВЫКОВ И КРЕАТИВНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Бобоева Муяссар Норбоевна

Бухарский государственный университет, Старший преподаватель кафедры математического анализа

Аннотация: В данной статье рассмотрены вопросы формирования творческих навыков младших школьников. Показаны методы-приемы, применяемые при проведении урока для повышения творческих способностей учащихся. Правильная организация урока направлена на повышение эффективности урока путем правильного выбора методов и приемов.

Ключевые слова: Креативность, метод-метод, воспитание, ученик, способности, внимание, проблемный вопрос, мысль, техническое мышление, техническое творчество, креатив, дизайн.

Respublikamizda ta'lim mazmunini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar maktablarda foydalanilayotgan darslik hamda adabiyotlarni har tomonlama ko'rib, tahlil qilishni talab qiladi. Shunga asosan xalq xo'jaligi uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashning asosiy omillaridan biri bo'lgan darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratishga yangicha yondashib, ularni amaliyotga tezkor joriy qilish zarur.

Keyingi yillarda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitilayotgan asosiy fanlarning deyarli hammasi bo'yicha darsliklar va dasturlar qayta ko'rib chiqilib, yangidan nashr qilinmoqda. Bu darsliklarda fan asoslarini eng so'nggi yutuq va o'zgarishlar bilan bayon qilishdan tashqari, milliylik, mahalliy sharoit va xalqimiz psixologiyasining o'ziga xos xususiyatlari o'z aksini topmoqda.

Respublikamizda chop qilinayotgan umumiy o'rta ta'lim maktablari darsliklarida o'quvchilarning mavzularni ongli ravishda o'zlashtirishi, hamda o'qish jarayonida ularning mustaqillik va faollik ko'rsatishlariga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. O'qish jarayonida o'quvchi o'zini shaxs sifatida namoyon qiladi. O'qituvchining asosiy vazifalaridan biri – o'quvchi bilimlarni qanday o'zlashtirayotganligini, materialga va fanni o'rganishga, umuman o'qishga bo'lgan qiziqishini to'g'ri aniqlashdan iborat. O'quvchilarning o'qishga jiddiy munosabatda bo'lishi ularni ma'lum fanning turmushdagi ahamiyatini to'g'ri anglab, bajariladigan ishning zarurligini tushunishdan, unga nisbatan qiziqish paydo bo'lishidan boshlanadi. O'quvchilarning o'qish jarayonidagi faolligi ko'plab ta'sirlar, jumladan bajarilayotgan ish tavsifi, fikrlashda va amaliy faoliyatda uning qanchalik mustaqilligiga bevosita bog'liq.

Didaktikada o'quvchilarning individual qobiliyatlari hamda tafakkurini rivojlantirish har bir o'quvchining

ijodiy faolligi bilan bog'liq. Ayniqsa ustalik bilan tuzilgan topshiriqlar ijodiy mustaqillikning namoyon bo'lishiga yuqori darajada ko'maklashadi. Bunda o'quvchilar topshiriqni tayyor namunalarni bo'yicha bajarmasdan, balki bu jarayonga qandaydir yangilik qo'shib, qo'yilgan masalani yechishda zamonaviy metodikadan foydalanib, o'z mulohazalarini bildirib, o'rganilayotgan hodisadagi o'zlari uchun yangi qirralarni ochadilar. Bunday sharoitda o'quvchi bilish faoliyatining yangi metodlarini egallaydi. Ijodiy bilish o'rganilayotgan hodisaning yangi qirralarini ochishni, bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirishni, o'quv materialini o'rganishning yanada mukammal metodlaridan foydalanishni taqozo qiladi.

Shu bilan bir qatorda ijodkorlik ko'nikmasi taqlid orqali shakllanishini ham alohida qayd qilib o'tish lozim. O'quvchilarning takrorlash, taqlid qilish kabi faoliyatlari ijodkorlik ko'nikmalarining rivojlanishiga ko'maklashadi. O'quvchining ijodkorligi uning taqlid qilish uchun egallagan bilim va ko'nikmalariga tayanadi va uning masalalar yechish, topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligida namoyon bo'ladi.

Mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichidagi mehnatga ijodiy yondoshish bo'yicha o'quvchilarni o'qish jarayonida har tomonlama rivojlantirish vazifasini qo'ymoqda. Shu munosabat bilan individual mustaqil ishlar va ularning turli ko'rinishlariga bo'lgan qiziqish nazariyotchi pedagoglar o'rtasida ham amaliyotchi-o'qituvchilar o'rtasida ham ortib bormoqda. Hozirgi kundagi maktablarga rivojlangan tafakkur va nisbatan katta tajribaga ega bo'lgan o'smirlar kirib kelmoqdalar. Internet, kino, radio, teleko'rsatuv, ko'plab adabiyot va hokazolar bolalarning rivojlanishiga o'z ijodiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Bu bolalarning hayotiy tajribalari ortishiga, qiziqishlarining rivojlanishiga ko'maklashadi. XXI asrda yashayotgan bolalar bilan eski uslubda ishlab yaxshi natijalarga erishish qiyin, ularni qiziqtirish, jalb qilish va faolligini ma'lum yo'nalishga sola bilish zarur. Shu sababli o'quvchilarning o'qishga qiziqishini orttirish, mustaqilligini rag'batlantirish va o'qish jarayonidagi ijodkorlik faolligini rivojlantirishga qaratilgan individual mustaqil ishlarining ahamiyati kelajakda yanada orta boradi. Jamiyatimizning hozirgi rivojlanish bosqichida mehnatga ijodiy yondoshish bo'yicha talablar ta'lim jarayonida o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirish vazifasini qo'ymoqda.

Zamonaviy ta'limda o'quvchilarga nafaqat bilim berish balki, ularning kreativlik qobiliyatlarini ham oshirish kerak bo'ladi. Chunki hozirgi zamonda zamon bilan hamnafas yurish juda muhim sanaladi. Ta'lim jarayonida interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalardan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor dolzarb vazifalardan biri. Yangi va ilg'or pedagogik texnologiyalar qo'llanilgan darslar o'quvchilar egallayotgan bilimlarni mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan bo'lishi kerak. O'qituvchi bu jarayonda o'quvchi shaxsining rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi, tarbiyalanishiga va o'quvchilarning kreativlik, yaratuvchanlik qobiliyatlari oshishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Darsni to'g'ri tashkil qilish o'quvchilarning taqdim etilgan bilimlarni yaxshi egallashlariga, o'zlari mustaqil fikrlab xulosa qilishlariga, do'stlaridan o'rganishlariga, yangi fikrlar yaratishlariga turtki bo'ladi.

Darsning qanday o'tishi darsning kirish qismida o'quvchilarni darsga jalb qilishimizga bog'liq. Chunki o'quvchi darsga to'liq tayyor bo'lishi uchun diqqatini jamlashi muhim. O'quvchi diqqatini jalb qilish uchun darsning kirish qismida o'quvchilarga mavzuga mos jumboqli, muammoli savol berish kerak bo'ladi. Savolimiz shunday bo'lishi kerakki, o'quvchi bu savol javobini topishi uchun darsning oxirigacha mavzuni o'rganishga majbur bo'lsin. Dastlab o'quvchilar bu savol yuzasidan ozroq muhokama qilishlariga sharoit yaratib bering. So'ngra muhokamani yakunlab, yangi mavzuni o'tish kerak. Shunda dars oxirigacha o'quvchi diqqatini tuta olamiz. Biz dars davomida o'quvchilarni 100 foiz aktiv holda ushlab turishimiz kerak. Buning uchun esa dars davomida vaqti - vaqti bilan muammoli savol berib turish kifoya qiladi. Darsda o'quvchilar qiziqishlarini oshirishda o'qituvchining kreativligi juda muhim. Zerikarli dars muhitining saballaridan biri - o'quvchilar diqqatining pastligi, darsga befarqligi va dangasaligi.

Har doim bir xillikdan qochish kerak: O'tilgan mavzuni so'rash, yangi mavzuni odatdagidek tashkil qilish usulida o'tilgan dars samarasi bo'lmaydi. Sayohat metodi orqali darsni tashkil qilish. Dars boshida o'quvchilarga "Bugun biz sizlar bilan darsimizda sayohat qilamiz" deymiz. So'ng o'tiladigan mavzuni bir nechta qismlarga bo'lib olamiz. Bunda o'tilayotgan mavzuning asosiy qoida, fikrlarini alohida qog'oz kartochkalarga yozib oling. O'quvchilar ana shu berilgan fikrlarni maktab atrofida joylashgan korxonaga, savdo va boshqa ob'yektlarga biriktirib olishlari kerak bo'ladi. Shunda o'quvchilardan do'stining 1- ma'lumotni qaysi ob'yektga joylashtirganini so'rash kifoya. O'quvchidan "Ushbu ob'yektga qaysi ma'lumotlar biriktirildi?" deb so'rash mumkin. Bu usulda o'quvchilar darsda berilgan barcha ma'lumotlarni eslab qolishlariga, hamda, o'tilgan mavzudagi ma'lumotlarni darsning o'zidayoq eslab qolishiga erishiladi. Yangi mavzuni eslab qolishda butun sinf yoki kichik guruhni qamrab olib, berilgan mavzu yuzasidan

o'z fikrlarini bayon qilishlari so'raladi. O'quvchilarga ko'proq o'zlari mantiqiy o'ylashga va mustaqil ravishda fikrlashga undaydigan o'ylantiruvchi savollar berish kerak. Bunday so'rovlar o'quvchilarda yangi kreativ fikrlar tug'ilishiga ko'makchi bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azizxo'jaev A. O'qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. T. A. I. Vorobev, S.
2. Sh.S.Sharipov "Kasb ta'limi tizimida o'quvchilar ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishning uzluksizligi". Toshkent: "Fan" nashriyoti. 2005 y.
3. Boboyeva M., Qutliyeva Z. (2019). Formation of elementary mathematical concepts in preschool children. J. Global Research in Math. Archives, 6(11),10-12.
4. Boboyeva M.N. Increasing creative activity of students by application of methods of analysis and synthesis in mathematics lessons. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. 3:05 (2022), p.67-75.
5. Boboyeva M.N. Maktab matematika darslarida misol-masalalar yechish orqali turli kasblarga oid ma'lumotlarni singdirish. Science and Education 2:8 (2021), 496-504 b.
6. Boboyeva M.N. Differensial hisobning iqtisodda qo'llanilishini takomillashtirish istiqbollari. Science and Education 2:8 (2021),476-485 b.
7. Boboyeva M.N. "Matritsalar haqida tushuncha va ular ustida amallar" mavzusini ayrim interfaol metodlardan foydalanib o'qitish. Pedagogik mahorat Maxsus son (2021), 38-42 b.
8. Бобоева М.Н. "Чизиқли тенгламалар системаси" мавзусини ўқитишда муаммоли таълим технологияси ва "зинама-зина" методини қўллаш. Pedagogik akmeologiya. Maxsus son (2022) 67-74 b.